




ISSN: 2181-0796  
DOI: 10.26739/2181-0796  
[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

## TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ  
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

INTERNATIONAL JOURNAL OF  
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION



Alisher Navoi



VOLUME 3  
ISSUE 5      2022



**Tadqiqot.uz**

**ISSN: 2181-0796**

**Doi Journal 10.26739/2181-0796**

---

**TIL, TA'LIM, TARJIMA**  
**3-SON, 5-JILD**

---

**ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**  
**НОМЕР-3, ВЫПУСК-5**

---

**LANGUAGE, EDUCATION,**  
**TRANSLATION**  
**VOLUME-3, ISSUE-5**

---



**TOSHKENT-2022**

## MUNDARIJA \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

### T I L S H U N O S L I K

<b>1.Rasulov Ravshanxo‘ja, Murodova Firuza</b>	
Fe'l asosli gaplarning obyekt valentligi.....	7
<b>2.Пардаев Зафар</b>	
Ўзбек тилида нутқий актларнинг баҳо билан прагматик қатламланиши.....	17
<b>3.Safarov Firuz</b>	
O‘zbek adabiy tili grammatik qurilishining tayanch unsuri.....	26
<b>4.Рўзиев Яраш</b>	
Ўзлаштирма нутқининг морфологик тури ва унинг қиёсий таҳлили (ўзбек ва немис тиллари мисолида).....	35
<b>5.Nigmatova Lolaxon</b>	
Sistemaviylikning formal-funksional tushunilishi.....	46
<b>6.Botirova Adiba</b>	
Grammatik o‘quv lug‘atlari tuzish va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar.....	59
<b>7.Жаббарова Юлдуз</b>	
Қариндошлик терминологияси муҳим этнографик ва тарихий манба сифатида.....	67
<b>8.Долиева Лайло</b>	
“Эмоция”нинг фанлараро ракурсидаги ички ва ташқи тасвири.....	74
<b>9.Гаппаров Алибек</b>	
Публицистик матнинг социолингвистик тадқиқи.....	87
<b>10.Urokov Xasan</b>	
Kun.uz ijtimoiy tarmoq xabar matnlarining sotsiolingvistik tahlili.....	95

### T A' L I M S H U N O S L I K

<b>11.Юсупова Зарина</b>	
Роль цифровой компетенции в современной образовательной среде в высшем образовании.....	103
<b>12.Qodirov Umut</b>	
Chet til darslarida kulturologik yondashuv.....	113
<b>13.Юсупова Зарина</b>	
Цифровая грамотность педагога как компонент педагогической культуры и показателя профессионального мастерства.....	122

### T A R J I M A S H U N O S L I K

<b>14.Юлдашева Диляшода</b>	
Вклад американского лингвиста Эдварда Сепира в современное языкознание.....	131

# TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

## T I L S H U N O S L I K

**Rasulov Ravshanxo'ja**

professori, filologiya fanlari doktori

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O'zbekiston

r.rasulov@cspi.uz

**Murodova Firuza**

o'qituvchi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O'zbekiston

firuzamj1984@gmail.com

## FE'L ASOSLI GAPLARNING OBYEKT VALENTLIGI



<https://zenodo.org/record/7799711#.ZC0cNXZBy3A>

### ANNOTATSIYA

O'zbek tilidagi fe'llar holat fe'llari tipik bo'lgan o'timsizligi bilan emas, balki o'timliligi bilan ham o'ziga xosdir. Shunga ko'ra ushbu holat fe'llari obyekt valentligiga ega bo'ladi.

Holat fe'li asosli gaplarda obyekt valentligi (obyekt aktantni-ishtirokchisi) vazifasidagi predmet muayyan holatdagi predmet sifatida kuzatiladi. Uning holatga ega bo'lishi agensning obyektga bevosita ta'siridan yuzaga keladi. Qiyoslang: *asramoq, qoplamoq*. Ayni vaqtida ob'yekt aktanti agens holatining qanday predmet ta'sirida yuz berishini ham ko'rsatadi. Bu holda avvalgisidan farqli holat agensniki bo'ladi. Qiyoslang: *poylamoq, qo'riqlamoq*. Demak, o'timli holat fe'llarining obyekt aktanti ham muayyan holatdagi predmet ham agens holatining predmeti bo'lishi bilan muhimdir. O'timli fe'llardan anglashilgan holat agens va obyekt bilan bog'lanishi jihatidan o'timli holat fe'llari semantik valentligiga ko'ra agens va obyekt valentliklariga ega bo'ladi. O'zbek tilidagi o'timli holat fe'llarining obyekt valentligini ifodalovchi so'z tushum kelishigi bilan shakllanadi. O'zbek tilidagi "harakat natijasi", "ijro", "malaka", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali o'timli holat fe'llari obyekt valentligiga ega. O'timli holat fe'llarining obyekt valentligi – obyekt aktanti vazifasida shaxs, inson a'zolari, sath, mavjudot, havo qatlami, harakat, o'simlik, qurilma, boylik, qurol, muammo, ichimlik kabilar keladi. Maqolada o'timli holat fe'llarining qayd etilgan obyekt ishtirokchisi - uni ifodalovchi lisoniy birliklarning har biri semantik, formal va struktrural jihatdan alohida tahlil va tadqiq qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'timli holat fe'li, valentlik, obyekt, aktant, agens, integral sema.

**Rasulov Ravshankhodja**

Professor, Doctor of Philology,  
Chirchik State Pedagogical University,  
Tashkent, Uzbekistan

r.rasulov@cspi.uz

**Murodova Firuza**

Teacher

Chirchik State Pedagogical University  
Tashkent, Uzbekistan  
firuzamj1984@gmail.com

## OBJECT VALENCE OF VERB-BASED SENTENCES

### ABSTRACT

Verbs in the Uzbek language are characterized not only by their intransitivity, which is typical of case verbs, but also by their transitivity. Accordingly, the verbs of this case have object valence.

The subject in the function of object valence (object actant-participant) is observed as an object in a certain state in sentences based on the state verb. Its state is caused by the direct effect of the agent on the object. Compare: protect, cover. At the same time, the object actant also shows how the state of the agent occurs under the influence of the object. In this case, the agent's situation is different from the previous one. Compare: guard, guard. So, the object actant of transitive verbs is important because the subject of the specific case is also the subject of the agent case.

Transitive verbs have agent and object valences according to the semantic valence of transitive verbs. The word expressing the object valence of transitive verbs in the Uzbek language is formed by the accusative.

In the article, the object participle of transitive verbs - each of the linguistic units representing it is analyzed and researched separately from the semantic, formal and structural point of view.

**Keywords:** transitive state verb, valence, object, actant, agent, integral sema.

**Расулов Равшанходжа**  
профессор, доктор филологических наук,  
Чирчикского государственного  
Педагогического университета,  
Ташкент, Узбекистан  
r.rasulov@cspi.uz

**Муродова Фируза**  
Преподаватель  
Чирчикского государственного  
педагогического университета  
Ташкент, Узбекистан  
firuzamj1984@gmail.com

## ОБЪЕКТНАЯ ВАЛЕНТНОСТЬ ГЛАГОЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

### АННОТАЦИЯ

Глаголы в узбекском языке характеризуются не только своей непереходностью, что характерно для падежных глаголов, но и переходностью. Соответственно, глаголы этого падежа имеют объектную валентность.

Субъект в функции объектной валентности (объектный актант-участник) наблюдается как объект в определенном состоянии в предложениях, основанных на глаголе состояния. Его состояние обусловлено непосредственным воздействием агента на объект. Сравните: *защищать, покрывать*. В то же время актант объекта также показывает, как происходит состояние агента под влиянием объекта. В этом случае ситуация агента отличается от предыдущей. Сравните: *ездить, охранять*. Итак, объектный актант переходных глаголов важен, потому что субъект конкретного падежа также является субъектом агентного падежа.

Переходные глаголы имеют валентность агента и объекта в соответствии с семантической валентностью переходных глаголов. Слово, выражающее объектную валентность переходных глаголов в узбекском языке, образуется винительным падежом.

В статье объектное причастие переходных глаголов - каждая из представляющих его языковых единиц анализируется и исследуется отдельно с семантической, формальной и структурной точек зрения.

**Ключевые слова:** глагол переходного состояния, валентность, объект, актант, агент, интегральная сема.

O'zbek tilshunosligida, umuman turkologiyada, holat fe'llari haqida fikr yuritilgan ilmiy asarlarda holat fe'llarining o'timli guruhi mavjudligi mutlaqo tilga olinmaydi. Vaholanki, o'zbek tilidagi holat fe'llari faqat tipik xarakterdag'i o'timsizligi bilan emas, balki o'timliligi bilan ham ajralib, o'ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo'ladi. Demak, o'timli holat fe'llari obyekt(to'g'ri obyekt) valentligiga ham ega bo'lib, ushbu valentlik zaruriy hisoblanadi. Holat fe'llarining o'timli tipi semantik jihatdan obyekt aktantini bevosita talab qilishiga ko'ra jiddiy ahamiyatga egadir. Chunki holat fe'llarining shu aktanti asosida obyekt valentligi va kauzativlik munosabati yuzaga keladi. Bu esa o'timli holat fe'llari semantik imkoniyatining obyektiga ko'ra kengligini, boyligini ko'rsatadi.

Sintaktik birliliklarda obyekt ishtirokchisi vazifasidagi predmet muayyan holatdag'i predmet sifatida kuzatiladi. Uning holatga ega bo'lishi, holatni o'zida "tashishi" agensning obyektga bevosita ta'siridan yuzaga keladi. Qiyoslang: *asramoq, saqlamoq, qoplamoq, o'ramoq*. Holat fe'li asosli gaplarda obyekt aktanti agens holatining qanday predmet ta'sirida yuz berishini ham ko'rsatadi. Bunda fikr yuritilgan tipdan farqli holat agensniki bo'ladi [1, B.31]. Agens holati muayyan predmet ta'sirida yuzaga keladi. Obyekt vazifasidagi predmet agens holatining manbai bo'lib voqelashadi. Shunga ko'ra bunda agensning predmetga (obyektga) ta'siri bo'lmaydi. Qiyoslang: *poylamoq, qo'riqlamoq, qo'masamoq*.

Demak, o'timli holat fe'llarining obyekt qatnashuvchisi ham muayyan holatdag'i predmet, ham agens holatining predmeti, manbai bo'lish imkoniga ko'ra o'ziga xos xususiyatiga egadir. O'timli fe'llardan anglashilgan holat agens va obyekt bilan bog'lanishi jihatidan o'timli holat fe'llari semantik imkoniyatiga (semantik valentligiga) ko'ra agens va obyekt valentliklariga ega bo'ladi. Demak, holat fe'llarining agens bilan bir qatorda obyektni ham talab qilishi ularning o'timliligidan kelib chiqadi. O'timlilik muayyan holat fe'llarining o'ziga xos semantik imkoniyati bo'lib voqelashadi[2, B.65].

O'zbek tilidagi o'timli holat fe'llari talab qiluvchi obyekt aktanti turlicha predmetlarni anglatuvchi so'zlarda ifodalanadi. Shunisi muhimki, bu til birliklari (leksemalar)ning gapda faqat tushum kelishigi qo'shimchasi bilan qatnashishi, ushbu kelishikli so'z formasini tuzishi tipik hisoblanadi. Bu – mantiqiy. Chunki har bir o'timli fe'l to'g'ri obyekt valentligi

realizatorining, asosan, tushum kelishigida kelishini talab qiladi[3, B.365]. Bu bevosita semantik talabdan kelib chiqadi. Tushum kelishikli so'zda ifodalangan predmet fe'lidan anglashilgan holat bilan bevosita bog'lanadi. Demak, holat fe'llari obyekt valentligi realizatorida tushum kelishigi qo'shimchasi so'z ma'nolarini biriktiruvchi vazifa bajaradi. Shu qo'shimcha asosida fe'l va ot (ba'zan harakat nomi, olmosh) zaruriy semantik – sintaktik munosabatga kirishadi. Nutq birligi – fe'l boshqaruvli obyektli birikma hosil bo'ladi. Ayni vaqtida bunday boshqaruv kuchli boshqaruvligi bilan ajralib turadi. Chunki kuchli boshqarish qobiliyati, asosan, o'timli fe'llarga tegishli bo'ladi[4, B.26, 288, 500].

Demak, *qoplamoq, tamomlamoq, yakkalamoq, yolg'izlamoq, saqlamoq, asramoq, o'qtalmoq, panalamoq, o'rganmoq, ko'z-ko'zlamoq, chimirmoq, yoshlamoq, chulg'amoq, o'rtamoq, qo'riqlamoq, poylamoq, qizg'anmoq* va *qo'msamoq* o'timli holat fe'llari kuchli boshqaruvga ega fe'lllar bo'lishiga ko'ra ular gap konstruksiyalarida boshqariluvchi (tobe) komponent - tushum kelishigida shakllangan so'z bilan qayd etiladi. Chunki, aytiganidek, ayni kelishikdagi so'z ifodalagan predmet fe'lidan anglashilgan holat bilan bevosita, zaruran bog'lanadi, muayyan holatga o'tadi, holatlashadi.

Yuqorida yuritilgan fikrlarni umumlashtirib, aytish mumkinki, agens ta'sirida yuzaga kelgan holatdagi obyektni reallashtiruvchi nutq birliklari muayyan predmetni ifodalashiga, vositasiz to'ldiruvchi bo'lishiga ko'ra o'zaro o'xshash. Ammo ular holatni qanday predmetni markazlashtirishiga ko'ra farqlidir.

O'zbek tilidagi “harakat natijasi”, “ijro”, “malaka”, “obrazli”, “fiziologik” va “psixik” integral semali o'timli holat fe'llari obyekt valentligiga (aktantiga) egadir.

*Qoplamoq, tamomlamoq, yakkalamoq, yolg'izlamoq* “harakat natijasi”, *saqlamoq, asramoq, o'qtalmoq, panalamoq* “ijro”, *ko'z-ko'zlamoq* “obrazli”, *chimirmoq, yoshlamoq* “fiziologik”, *chulg'amoq, o'rtamoq* “psixik” integral semali holat fe'llarining obyekt aktanti ushbu fe'llarda ifodalangan holatdagi predmet bo'lib, obyekt holati agens ta'sirida yuzaga keladi. *Qo'riqlamoq, poylamoq* “ijro”, *o'rganmoq* “malaka” va *qizg'anmoq, qo'msamoq* “psixik” integral semali holat fe'llarining obyekti esa agens holatining predmeti (manbai) bo'lishi bilan ajralib turadi. Aytiganlarni quyidagicha ham ko'rsatish mumkin:

$$\begin{array}{c} A \rightarrow O \\ A \leftrightarrow O \\ O \rightarrow A \end{array}$$

Kuzatilishicha, birinchi tipda ( $A \rightarrow O$ ) obyekt aktanti holatni o'zida moddiylashtiradi (obyekt holati). Ikkinci tipda ( $O \rightarrow A$ ) obyekt aktanti holatni o'zgada “yaratuvchi” hisoblanadi (agens holati). Bunda aktant “grammatik (semantik- R.R.)” jihatdan obyekt bo'lsa-da, ta'sir e'tibori bilan obyektlilik xususiyati bo'shashadi[5, B.67]. Qiyoqlang: *patirni saqlamoq, yo'limni poylamoq*.

Quyida qayd etilgan o'zbek tilidagi o'timli holat fe'llarining obyekt [6, 105] aktantlarini alohida ko'rib chiqamiz.  
*Qoplamoq, yakkalamoq, yolg'izlamoq* “harakat natijasi”, *saqlamoq, poylamoq* “ijro” va *chulg'amoq, o'rtamoq, qizg'anmoq, qo'msamoq* “psixik” integral semali holat fe'llarining obyekti vazifasida shaxs keladi. Fe'l boshqaruvli birikma a'zolari “shaxs” klassemasiga ko'ra o'zaro birikadi. Masalan: *Jamoa ishchilarini ig'vogarni yakkaladilar*. (“Tosh. oqshomi”). *U bolani saqladi* (O'z. xalq. ertak). *Shoirni chulg'aydi o'ylar daf'atan* (A.Oripov). *Ostingda yuz alvon o'ynaydi oting, Dushmanni o'rtaydi sha'ni shavkating* (Alpomish). *Iskandar uni qattiq qizg'andi* (Oybek). *Men yo'lingizga joydirayman, sizni qo'msayman* (M.Ismoilii). *Poylamoq* “integral” semali holat fe'lining obyektni realashtiruvchi *o'rtoq* so'zi egalik qo'shimchasini olishi bilan xarekterlanadi. Bu holda ushbu so'z shaxs ifodasini berib, uning (shaxsning) holat subyektiga (agensiga) tegishliligini bildiradi. Bunda obyekt (shaxs) agens holatini yuzaga keltiruvchigina emas, balki bevosita agensga tegishligiga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatga egadir. Shunga ko'ra agens ham holat “egasi”, ham obyekt “egasi” bo'ladi. Masalan: *Xilvat bir joyga yashirinib, o'rtoq'ini bozor yo'lida poyladi* (M.Ismoilii). *Qoplamoq* “harakat natijasi”

integral semali holat fe'lining obyekti qiz (go'zal qiz) ko'chma ma'noda qo'llangan oftob leksemasida ham ifodalanadi. So'z birikmasida reallashgan obyekt (shaxs) ajratilib, ta'kidlab ko'rsatiladi. Bunda obyektning realizatori poetik parafraza bo'lishiga ko'ra ajralib turadi: *U oftobni (go'zal qizni- R.R.) bulutlar qoplagan* (Oybek). Shunisi xarakterlik, ko'pincha poetik nutqda *saqlamoq* fe'lining obyekti (shaxs)ni reallashtiruvchi so'z sintaktik qayd etilmaydi. U potensial imkoniyatga aylanadi. Bu holda obyektning mavjudligi, qaysi shaxsligi gapning mazmunidan, holat fe'li ma'nosidan aniq sezilib turadi. Demak, uning (obyekt aktantining) mavjudligi fikran bo'lib, u sintaktik jihatdan faqat tushum kelishigidagi olmoshda qayd etilishi bilan ham xarakterlanadi. *Yigirma yil saqladim dilda* (E.Vohidov). "Yomon ko'zdan saqlasin omon," - deb qo'yadi qaytishda yana (G.Nurullayeva). *Uch balodan saqlasin, charxi balokash bo'lmasin* (E.Vohidov).

O'zbek tilidagi *qoplamoq* "harakat natijasi", *saqlamoq, asramoq, panalamoq* "ijro", *chimirmoq, yoshlamoq* "fiziologik" va *o'rtamoq* "psixik" integral semali holat fe'llarining obyekti vazifasida kishi a'zolari keladi. Obyektlri birikmaning tarkib topishi "a'zo" klassemasiga ko'ra yuz beradi. Masalan: *Ko'ksini qoplagan qorday oq soqol* (Toshpo'lat Hamid). *Uka, harqalay o'zingni tut, asabingni saqla* (Mirmuhsin). Men ko'zimni panaladim (Almanax). *Muattar qoshini chimirdi* (A.Qahhor). *Otasi ko'zini yoshladi. Qalbini o'rtadi allaqanday sas* (A.Oripov). *Asramoq* "ijro" integral semali holat fe'lining obyekti (a'zo) ba'zan ot o'rnidagi ko'rsatish olmoshida reallashadi. Ushbu olmosh ham muayyan a'zoni, ham ko'rsatish ifodasini beradi. Uning (olmoshning) qaysi predmet o'rnila qo'llanishi kontekstdan, uni o'ragan qurshov komponentlaridan anglashilib turadi. Bunda "...olmoshning qo'llanishiga sabab bo'layotgan ot ishtirot etadi" [7, B.338].

*Ko'z qadriga yetgan odam uni har chog' xas-cho'pdan asraydi.* (M.Ismoilov). *Qoplamoq* "harakat natijasi" va *qo'riqlamoq, poylamoq, saqlamoq* "ijro" integral semali holat fe'llarining obyekti sathda reallashadi. Birikma konstruksiyasining tuzilishida "sath" klasema vazifasini o'taydi. Masalan: *Chor atrofni tog' tizmalari qoplagan.* (N.Normatov). *O'tap drujinasi bilan yo'llarni qo'riqladi.* (H.G'ulom). *Saharlab yo'limni poylar onajon.* (O.Hojiyeva). *Qoplamoq* holat fe'lining obyekti (sath) ot+ko'makchi ot qolipli analitik shaklda ham keladi. Bunda prepozitiv so'z (aniqlovchi) sathning nimaga oidligiga, taalluqligiga ishora qiladi. *Bu to'zon hovli yuzlarini ham qopladi.* (A.Muxtor). *Daryo ustini tuman qopladi.* (N.Fozilov). *Qoplamoq* holat fe'lining obyekti (sath) tenglashish munosabatidagi so'z formalarida kuzatiladi. Bu so'z formalari murakkab birikmadan iborat umumi komponent bilan keladi. Umumi component [8, B.100, 209] obyektga (aniqlanmishga) nisbatan aniqlovchi sanalib, birikmali komponentning ichki hokim (obyektga nisbatan tobe) komponentini – obyekt valentligining realizatoriga nisbatan sintaktik konstruksiysi hosil qiladi. Obyektni reallashtiruvchi so'z formalarining murakkab birikmali aniqlovchisi qaratqich kelishigida bo'lishiga ko'ra u (realizator) egalik qo'shimchasini oladi. Aniqrog'i, qaratqichli so'z formasi qaralmishning (obyektning) shunday tuzilishini talab qiladi: *hovuzning ich-i-ni, hovuzning bo'ylar-i-ni.*

Shunisi xarakterlik, aniqlovchi – umumi komponent obyekt ma'nosiga ega uyushgan so'z formalarining har biri bilan semantik-sintaktik bog'lanib, bir butunlikni hosil qiladi. Bunda umumi komponent dastlabki so'z formasiga nisbatan kontakt prepozitsiyada kelib, u bilan zinch bog'lanadi, birlgilikda talaffuz qilinadi. Bu holda umumi komponent bilan so'z formasi orasida pauza sezilmas darjada bo'ladi. Bu, bizningcha, umumi komponentning qaratqich kelishigida obyekt bilan kontakt pozitsiyada kelishidan hosil bo'ladi. Ayni vaqtida umumi komponent keyingi, distant pozitsiyadagi nutq birligiga ham tegishli bo'ladi. Ammo bu tegishlilik nutq faoliyatida emas, balki ongimizda amalga oshadi. Uning (umumi komponentning) bu obyektga ham taalluqligi semantik belgi asosida aniqlanadi.

Umumi komponent so'z formasida qayd etilgan obyektlarni aniqlashtirib qolmasdan, gapdagagi fikrga to'liqlik va aniqlik kiritadi, ta'sirchanlikni oshiradi, gap mazmunining tinglovchiga to'la yetib borishini ta'minlaydi. Qiyo'slang: *uning (xarobaning – R.R) o'ng*

*tomonidagi kattakon hovuzning ichini va bo'ylarini qurib qolgan supurgi, sassiqkapa qoplagan* (A.Qahhor). Harakat natijasi bo'lgan qoplamoq holat fe'lining obyekti pozitsiyasida mavjudot va havo qatlami, tamomlamoq holat fe'lining obyekti pozitsiyasida harakat keladi. Obyektli birikma qismlari uchun klassema vazifasini "mavjudot", "havo qatlami" va "harakat" semalari o'taydi. Masalan: ...*tong yorishib kelayotibdi, borlqnii harir tuman pardasi qoplagan* (A.Qahhor). *Birdan osmonni bulut qopladi* (O'.Hoshimov). *Ikkinchi sug 'orishni tamomladik* (Toshkent oqshomi). *Saqlamoq va panalamoq "ijro"* integral semali holat fe'llarining obyekti o'simlik bo'ladi. U ba'zan ta'kidlash, ajratib ko'rsatish ma'nosiga ega har elementi bilan ham keladi. Obyektli birikma "o'simlik" klassemasiga ko'ra tuziladi. Masalan: *Dam g'animat mo'l hosildan to'lsin* plan: *Har tolasin ko'z qorasi kabi saqla* (T.Yo'ldosh). *Qalandar daraxtlarni panaladi* (O.Yoqubov). *Qo'riqlamoq va poylamoq "ijro"* holati fe'llarining obyekti qurilma bo'ladi. Obyektli birikma "qurilma" klassemasiga ko'ra tuziladi: *O'tap tun bo'yidrujinasi bilan saroylarni ... qo'riqladi*. (H.G'ulom). ... *tashqarida otxonani poyladi* (O'z.xalq.ertak). Qo'riqlamoq fe'lining obyektni (qurilmani) ifodalovchi so'z qo'shma gapning keyingi komponentida egalik affiksli shaklda tegishlilik munosabatini ifoda etadi. Shunisi muhimki, obyektning kimga tegishliligini fodalovchi qaratqich kelishikli nutq birligi qo'shma gapning birinchi komponentida qo'llanib, obyektning realizatori bilan atributiv munosabatga kirishadi. U birinchi sodda gapda eganing aniqlovchisi bo'lsa, keyingi gapda to'ldiruvchining (obyekt valentligining) aniqlovchisi bo'lib kuzatiladi, ya'ni bu so'z formasi qo'shma gap tarkibida obyektga nisbatan distant pozitsiyada kelib, umumiy aniqlovchi bo'ladi. Masalan, *Yuzboshining mol-dunyosi benihoyat ko'p, kechalari uyini o'n ikki mengan qo'riqlar edi* (A.Qahhor). Qo'riqlamoq va saqlamoq "ijro" holati fe'llarining obyekti boylik bo'ladi. Fe'lli birikma "boylik" klassemasiga ko'ra tuziladi. Masalan: *Mulkimizni qo'riqlaymiz* (H.G'ulom). *Saqlangiz bu merosni sizlar ham* (B.Boyqobilov). Saqlamoq holat fe'lining obyekti vazifasida hayvon, yemish va urug', poylamoq holat fe'lining obyekti vazifasida poliz mevasi keladi. Fe'lli birikma "hayvon", "yemish", "urug'" va "poliz mevasi" kabi klassemalarga ko'ra tuziladi. Masalan: *Boy ham patirni saqlaydi hanuz* (G.Nurullayeva). *O'z mevang danagin saqla* (G'.G'ulom). *Kolxozning qovunini kim poylaydi* (S.Abdulla). O'qtalmoq "ijro" holati fe'lining obyekti quroq bo'ladi. Fe'l boshqaruqli birikma "quroq" klassemasiga ko'ra tuziladi: *Ular miltiqlarini olomonga o'qtaldi* (M.Ismoilii). *O'rganmoq "malaka"* integral semali holat fe'lining obyekti pozitsiyasida muammo (проблема) ma'noli so'z keladi. Obyektli birikma a'zolari "muammo" klassemasiga ko'ra o'zaro bog'lanadi: *sizning tufaylingizda ko'p masalalarini o'rgandim* (Oybek). "Obrazli" integral semali ko'z-ko'zlamoq holat fe'lining obyekti pozitsiyasida go'zallik ma'noli so'z keladi. Obyektli birikma a'zolari "go'zallik" klassemasiga ko'ra o'zaro bog'lanadi: ... *atirgullar ochilib, ranglar nafosatini ko'zko'zlaydi* (M.Ismoilii).

"Psixik" integral semali qo'msamoq holat fe'lining obyekti ichimlik bo'ladi. Birikma konstruksiyasi "ichimlik" klassemasiga ko'ra tuziladi: *Xotini oldiga ovqat qo'yganda, Saidg'ozining ko'ngli ichkilik qo'msadi* (S.Anorboyev). Xulosa qilib aytganda, 1) o'zbek tilshunosligida, umuman turkologiyada holat fe'llari haqida fikr yuritilan ilmiy asarlarning birortasida holat fe'llarining o'timli guruhi ham mavjudligi tilga olinmaydi. O'zbek tilidagi holat fe'llari tipik xarakterdagi o'timsizligi bilangina emas, balki o'timliligi bilan ham ajralib turadi. Holat fe'llarining o'timli turi ma'no jihatidan obyekt (to'g'ri obyekt) aktantini bevosita talab qilishiga ko'ra jiddiy ahamiyatga egadir. Ushbu holat fe'llarining obyekti aktanti asosida obyekt valentligi va kauzativ munosabat yuzaga keladi; 2) sintaktik birlklarda obyekt vazifasidagi predmet muayyan holatdagi predmet sifatida keladi. Uning holatli bo'lishi, holatni o'zida "to'plashi" agensning obyekta bevosita ta'siri natijasida yuz beradi. Ayni vaqtida gapda obyekt qatnashuvchisi agens holatining qanday predmet ta'sirida sodir bo'lishini ham ko'rsatadi. Bunda holat agensnikni bo'ladi. O'timli holat fe'llarining obyekti aktanti ham muayyan holatdagi predmet, ham agens holatining predmeti, manbai bo'lish imkoniga ko'ra o'ziga xos xususiyatga egadir.

Agens ta'siri natijasida yuzaga kelgan holatdago obyektni reallashtiruvchi va agens holatini yuzaga keltiruvchi obyektni reallashtiruvchi nutq birliklari muayyan predmetni ifodalashiga, vositasiz to'ldiruvchi bo'lishiga ko'ra o'zaro o'xshash. Ammo ular holatni qanday predmetda markazlashtirishiga ko'ra farqlidir; 3) o'zbek tilidagi o'timli holat fe'llari talab qiluvchi obyekt turlicha predmetlarni ifoda etuvchi so'zlarda reallahshadi. To'g'ri obyekt valentligini ifodalovchi so'zlarning gapda tushum kelishigi bilan qatnashishi tipikdir; 4) o'timli holat fe'llari obyektni ifoda etuvchi so'z bilan kuchli boshqaruv munosabatida bo'ladi; 5) o'zbek tilidagi "harakat natijasi", "ijro", "malaka", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali o'timli holat fe'llari to'g'ri obyekt valentligiga egadir; 6) "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "fiziologik" va "psixik" integral semali o'timli holat fe'llarining obyekti ushbu fe'llarda ifodalangan holatdagi predmet bo'lib, obyekt holati agens ta'sirida yuzaga keladi. "Ijro", "malaka" va "psixik" integral semali o'timli holat fe'llarining obyekti agens holatining manbai bo'lishi bilan ajralib turadi; 7) "harakat natijasi", "ijro" va "psixik" integral semali holat fe'llarining obyekt qatnashuvchisi vazifasida shaxs, "harakat natijasi", "ijro", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarining obyekti sifatida kishi a'zolari, "harakat natijasi" va "ijro" integral semali holat fe'llarining obyekti pozitsiyasida mavjudot, havo qatlami va harakat, "ijro" integral semali holat fe'llarining obyekti sifatida o'simlik, qurilma, boylik, hayvon, yemish, urug', poliz mevasi va qurol, "malaka" integral semali holat fe'lining obyekti pozitsiyasida muammo, "obrazli" integral semali holat fe'lining obyekti pozitsiyasida go'zallik, "psixik" integral semali holat fe'lining obyekti pozitsiyasida ichimlik kabilalar keladi.

O'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "harakat", "obrazli", "biologik", "fiziologik" va "psixik" integral semali o'timsiz holat fe'llari sintaktik konstruksiyalarda orttirma nisbatli so'z shaklida kelishiga ko'ra diqqatga sazovordir. Chunki qayd etilgan leksik-semantik guruhga oid holat fe'llari shunga ko'ra o'timli bo'ladi. Ularda morfologik-affiksal o'timlilik yuzaga keladi. Ma'lumki, bunda fe'l ma'nosidagi holatda reallahshuvchi alohida obyekt hosil bo'ladi. Ko'rindaniki, ushbu semantik guruh o'timsiz holat fe'llarining orttirma nisbat natijasida o'timlilikka o'tishi mantiqiy ravishda holatlari obyektni yuzaga keltiradi. Demak, muayyan holat fe'llarida o'timlilik morfologik-sintaktik planda sodir bo'lganda, fe'l leksemalarning obyekt aktanti faqat holatlari predmetligi – agens ta'sirida bo'lishi bilan ajralib turadi. Qoldirmoq "davomli", bo'shatmoq "harakat natijasi" integral semali holat fe'llarining obyekti vazifasida buyum keladi. Fe'llli birikma komponentlarining o'zaro birikuvi "buyum" klassemasiga ko'ra yuz beradi: *Bir yodgorlik qoldirdi ajdod nasliga* (B.Boyqobilov). *Qadahni bo'shatdi* (H.G'ulom). *To'xtatmoq, tinchitmoq* "harakat natijasi", *o'ldirmoq* "biologik", *semirtirmoq, ozdirmoq, unniqtirmoq, uxlatmoq, elitmoq* "fiziologik", *sergaklantirmoq, tinchlantirmoq, quvontirmoq, zeriktirmoq* va *asabiyatlantirmoq* "psixik" integral semali holat fe'llarining obyekti shaxsda reallahshadi. Obyektlari birikma "shaxs" klassemasiga ko'ra tuziladi. Masalan: *Domla meni to'xtatdi* (A.Qahhor). *Uni fashist otib o'ldirgan* (H.Nazir). *Mashina odamni semirtiradi* (A.Qahhor). *Bu kishini darrov elitadi* ("Tosh.oqshomi"). *Bu so'zlar Boburni sergaklantirdi* (P.Qodirov). *Dasht nimasi bilandir Shukurni quvontirdi* (N.Normatov).

*Tinchitmoq* "harakat natijasi" integral semali holat fe'lining obyekti ellipsis natijasida metonimik ma'no ko'chishidan yuzaga kelgan otda ham qayd etiladi. U o'rin munosabatiga ko'ra xarakterlanib, okkazional shaxs bilan bog'lanadi: *Akbar aka arang sinfni tinchitdi* (F.Musojonov). *To'ldirmoq* "harakat natijasi", *pishirmoq, do'rtaytirmoq* "obrazli", *qamashtirmoq, qaqshatmoq, junjitmoq, dikkaytirmoq, qoraytirmoq* "fiziologik" integral semali holat fe'llarining obyekti shaxs va hayvon a'zosidir. Fe'l boshqaruvli birikmaning tuzilishi "a'zo" klassemasiga ko'ra yuz beradi. Masalan: *O'pkasini to'ldirdi* (Guliston). *Ayol ko'kragini do'rtaytirdi* (Almanax). *Qimmatbaho mebellar ko'zni qamashtiradi* (A.Qahhor). *Salqin shamol badanni junjitadi* (H.G'ulom). *Ot quloqlarini dikkaytirdi* (M.Osim).

*O'chirmoq* "harakat natijasi", *pasaytirmoq* "harakatning holati" fe'llarining obyekti aktanti tovush bo'ladi. Obyektlari birikma "tovush" klassemasiga ko'ra tuziladi. Anvar mototsiklni qattiq varillatib, ovozini o'chirdi (N.Yoqubov). *Iqbol xola ovozini pasaytirdi*

(O'.Hoshimov). *Muzlatmoq* “harakat natijasi” bo‘lgan holat fe’lining obyekti vazifasida modda keladi. Obyektli birikma “sath” va “modda” klassemasiga ko‘ra tuziladi: *Izg‘irin muzlatar daryolar chetin* (T.Hamid). *Dadam tutunni darrov o‘chirdi* (A.Qahhor).

*Salqinlatmoq* “ijro”, *tetiklantirmoq*, *cho‘chitmoq* “psixik” integral semali holat fe’llarining obyekti vazifasida hayvon keladi. Obyektli birikma komponentlari “hayvon” klassemasiga ko‘ra o‘zaro bog‘lanadi: *Unda fil bolalarini salqinlatar edi* (H.Nazir). *Afandining muloyim gaplari itlarni tetiklantirdi* (Latifalar). *Soya toshdek qotgan kaltakesaklarni, qoqqan qoziqdek tikka yumronlarni cho‘chitdi* (A.Muxtor).

*Og‘irlashtirmoq*, *susaytirmoq* “harakatning holati” fe’llarining obyekti pozitsiyasida harakat ma’noli so‘z keladi. Fe’llli birikma a’zolari uchun klassema vazifasini “harakat” semasi o‘taydi: *Yerda tunov kuni yoqqan yomg‘irning ta’siri bor, jangchilarining yurishini og‘irlashtirardi* (Shuhrat). *Bu tovush bemorning harakatini susaytirdi* (N.Normatov).

*Kuchaytirmoq* “harakatning holati” fe’lining obyekt aktanti pozitsiyasida qo‘rquv va yaqinlik ma’noli so‘zlar keladi. Obyektli birikma komponentlari “qo‘rquv” va “yaqinlik” klassemasiga ko‘ra o‘zaro bog‘lanadi: *Qachonlardir eshitgan afsona-yu rivoyatlarni eslash vahimani kuchaytiradi* (Fan va turmush). *Aksincha, u do‘stlikni kuchaytiradi* (M.Ismoiliiy).

*Qovjiramoq* va *so‘ldirmoq* “biologik” integral semali holat fe’llarining obyekti vazifasida o‘simlik keladi. Birikma konstruksiyasi “o‘simlik” klassemasiga ko‘ra tuziladi: *Tez kunda quyosh endigina ko‘kara boshlagan giyohlarni qovjiratdi* (O.Muxtorov). *Qizil gulni xazon qilib so‘ldirar* (F.Yo‘ldosh). Xullas, 1) o‘zbek tilidagi “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “harakat”, “obrazli”, “fiziologik” va “psixik” integral semali o‘timsiz holat fe’llari sintaktik konstruksiyalarda orttirma nisbatli so‘z shaklida kelishiga ko‘ra o‘timli bo‘ladi. Bu turda fe’l ma’nosidagi holatda reallashuvchi alohida obyekt yuzaga keladi. U agens ta’sirida bo‘lib, holatlari predmet (obyekt) sifatida kuzatiladi: 2) orttirma nisbatdagi “davomli” va “harakat natijasi” integral semali holat fe’llarining obyekti vazifasida buyum; “harakat natijasi”, “biologik”, “fiziologik” va “psixik” integral semali holat fe’llarining obyekti funksiyasida shaxs va hayvon a’zosi; “harakat natijasi” va “harakat” integral semali holat fe’llarining obyekti vazifasida sath, modda; “ijro” va “psixik” integral semali holat fe’llarining obyekti o‘rnida harakat, qo‘rquv va yaqinlik; “biologik” integral semali holat fe’llarining obyekti pozitsiyasida o‘simlik kabilar keladi.

O‘zbek tilidagi harakat natijasi, ijro, harakatning holati o‘timli holat fe’llari gap konstruksiyalarida majhul nisbatda ham qatnashadi. Bu holda fe’l obyekt aktantining realizatori sintaktik shakllanishiga ko‘ra alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. U gapda bosh kelishikda kuzatiladi. Aniqrog‘i, tushum kelishigi qo‘srimchasi “ellipsisga” uchraydi. Shuningdek, to‘g‘ri obyektni ifoda etuvchi so‘z to‘ldiruvchi vazifasidan ham qutiladi. U formal-sintaktik tuzilishiga mos ega vazifasiga o‘tadi. Demak, to‘g‘ri obyekt aktantining realizatori sintaktik jihatdan ega bo‘lishiga ko‘ra semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuz beradi. Bu tipda holat fe’llari faqat kesim vazifasini o‘taydi. Majhul nisbatdagи “harakat natijasi” integral semali bo‘shatilmoq holat fe’lining obyekt aktanti shaxs, qoplanmoq holat fe’lining obyekti qurilma, o‘chirilmoq holat fe’lining obyekti alanga bo‘ladi. Predikativ qo‘silma komponentlari “shaxs”, “qurilma”, “alanga” klassemalariga ko‘ra o‘zaro birikadi. Masalan: *U murabbiylidkan bo‘shatildi* (A.Qahhor). *Xona tamaki va nasha tutuni bilan qoplangan* (H.G‘ulom). *Kechga borib yong‘in o‘chirildi* (G.Jahongirov). *Saqlamoq* “ijro” integral semali holat fe’lining obyekti buyum bo‘ladi. Predikativ birikma a’zolarining o‘zaro birikuvi uchun “buyum” semasi klassema vazifasini o‘taydi. Masalan: *Bu nodir sovg‘alar hozirgi kunda O‘zbekiston kino san’ati muzeyida saqlanmoqda* (“Toshkent haqiqati”). *Bu xazinada inson husnining durdonalari saqlanadi* (M.Ismoiliiy). *Kuchaytirilmoq* harakatning holati fe’lining obyekti pozitsiyasida “harakat” ma’noli so‘z keladi. Gap konstruksiyasi “harakat” klassemasiga ko‘ra tuziladi: *Bo‘limda shu kecha-kunduz g‘o‘zani sug‘orish ham kuchaytirilgan* (“Tosh.haqiqati”).

Orttirma nisbatda harakat natijasi bo‘lgan o‘chirmoq holat fe’li birgalik nisbatli shaklida kelganda, uning obyekt aktanti (alanga) sintaktik reallashmagan olmoshning mazmun tomonini

tashkil qiladi: *Odamlar alangaga ko'rpa, gilam, sholcha yopib, zo'rg'a o'chirishibdi* (A.Qahhor). Shunday qilib, 1) o'zbek tilidagi “harakat natijasi”, “ijro” va “harakatning holati” integral semali o'timli holat fe'llari sintaktik konstruksiyalarda majhul nisbatda ham kuzatiladi. Bu holda fe'l obyektini reallashtiruvchi so'z nutqiy shakllanishiga ko'ra alohida ahamiyatga ega bo'ladi. U gapda bosh kelishikda kelib, ega vazifasini o'taydi. 2) Majhul nisbatdagi “harakat natijasi” integral semali holat fe'llarinining obyekti shaxs, qurilma va alanga bo'ladi. “Ijro” integral semali holat fe'lining obyekti harakat bo'ladi; 3) harakat natijasi bo'lgan o'chirmoq holat fe'li birgalik nisbatida kelganda, uning obyekti vazifasida alanga qatnashadi.

### Иқтибослар/Сноски/References

- 1.Кибардина С.М. Категории субъекта и объекта и теория валентности, Л.: Наука, 1982. 31-бет. (Kibardina S.M. Kategorii subekta i obyekta i teoriya valentnosti, L.: Nauka, 1982. 31-bet. )
- 2.Кононов А.Н. Грамматика современного литературного языка, М.; Л.: Издательство А.Н., 1960. 447 с. 199 (Kononov A.N. Grammatika sovremenennogo literaturnogo yazika, M.; L.: Izdatelstvo A.N., 1960. 447 s. 199)
- 3.Гуломов А.Г, Аскарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили, ©«Уқитувчи»нашриёти, 1987 25-бет. (G'ulomov A.G, Askarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili, ©«O'qituvchi»nashriyoti, 1987 25-bet.)
- 4.Розенталь Д.У. Теленкова М.А. Словарь справочник лингвистических терминов, М: 1976 год, 500 (Rozental D.U. Telenkova M.A. Slovar spravochnik lingvisticheskix terminov, M: 1976 god, 500)
- 5.Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси, Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. 67-бет (Abduraxmonov F. O'zbek tili grammatikasi, Toshkent: “O'qituvchi”, 1996. 67-bet)
- 6.Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси, Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996.338-бет (Abduraxmonov F. O'zbek tili grammatikasi, Toshkent: “O'qituvchi”, 1996.338-bet)
- 7.Алисова Т.Б. Очерки синтаксиса современного итальянского языка. М.: Видавництво Московського університету, 1971. (Alisova T.B. Ocherki sintaksisa sovremenennogo italyanskogo yazika. M.: Vidavnitstvo Moskovskogo universitetu, 1971.)
- 8.Типология каузативных конструкций. Морфологический каузатив, Ленингр. отд-ние, 1969. 209 (Tipologiya kauzativnix konstruktsiy. Morfologicheskiy kauzativ, Leningr. otd-nie, 1969. 209)